

CHORVACHILIK MAHSULOTLARINING ENG MUHIM TURLARINI ISHLAB CHIQUARISHDAGI ASOSIY TENDENTSIYALARNI TAHLIL QILISH

Abdullayev Jasur Abdijabborovich

Qarshi davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

jasurabdullaev1311@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola chorvachilikning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun statistik ko'rsatkichlar tizimining nazariy asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada chorvachilik statistikasi, iqtisodiy ko'rsatkichlar turlari va ularni tizimlashtirish tamoyillari tahlil qilinadi. Shuningdek, unda chorvachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish va tizimli yondashuv orqali resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari ko'rsatilgan. Maqola natijalari chorvachilikni boshqarish va rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Sut va sut mahsulotlari, chorvachilik, chorvachilik statistikasi, iqtisodiy samaradorlik, ko'rsatkichlar tizimi, resurslardan foydalanish, statistik tahlil, dinamik qatorlar*

KIRISH

Chorvachilik mahsulotlaridan foydalangan holda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlarining rivojlanishini vaqt o'tishi bilan tahlil qilish, modellashtirish va prognoz qilish muhimdir.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasini modellashtirish turli xil modellar, masalan, asosiy trend, trend-mavsumiy qatorlar va bog'langan dinamika qatorlari yordamida amalga oshirilishi mumkin. Yuqoridagi usullarning har birini amalga oshirish faqat ma'lum bir axborot bazasi mavjud bo'lganda mumkin.

Asosiy trend modellarini qurish bir o'lchovli dinamika qatorlarini, ya'ni ma'lum bir turdagi mahsulot ishlab chiqarishni tavsiflovchi aniq statistik ko'rsatkichlar qatorini tahlil qilishga asoslangan. Ushbu modellarni qurish har qanday dinamika qatoriga bir qator nazariy jihatdan farqlanadigan omillar ta'sir qiladi degan qarashga asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada chorvachilikning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun statistik ko'rsatkichlar tizimini o'rganish uchun nazariy-tahliliy va qiyosiy usullar qo'llaniladi. Tadqiqotda rasmiy davlat statistikasi, ilmiy adabiyotlar va ilg'or amaliy tajriba asos sifatida ishlatilgan. Chorvachilik soni, mahsuldorlik, ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar to'plangan va asosiy va kengaytirilgan ko'rsatkichlarga bo'lingan. Ushbu tizim orqali chorvachilikning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi, vaqt o'tishi bilan va mintaqalar bo'yicha taqqoslanadi va samaradorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tahlil va natijalar. Ilmiy adabiyotlarda bu omillar dinamik qatorlarning

komponentlari deb ataladi. Dinamika qatorlarini komponentlarga bo'lish nuqtai nazaridan, bu nazariy abstraktsiya, chunki bu ajratish sof matematik protsedura bo'lib, statistik usullar asosida amalga oshiriladi. Chorvachilik mahsulotlardan Sigirlarning sut sog'imi bo'yicha mahsuldorligini tahlil qilish usulini ishlab chiqish uchun mahsuldorlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash zarur. Bizning qarashimiz bo'yicha sigirlarning mahsuldorligiga quyidagi omillar guruhi ta'sir qiladi:

1. Sigirning zoti;
2. Sigirning fiziologik holati;
3. Boqish va saqlash sharoitlari.

Sigirlar mahsuldorligining muhim jihatlaridan biri ularning zoti hisoblanadi. Shuni qayd etish lozimki, yirik shoxli mollar o'zining tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonida qator biologik sifatlariga ega bo'ldi, jumladan - yuqori sut mahsuldorligi, sut tarkibining oliy sifati, bu esa olim va mutaxassislarning mazkur sohada mollarning birlashgan belgilari bilan alohida guruhlarini nasllar deb tan olishlariga imkon bergan. Shu boisdan, tan olish lozimki, boshqa teng sharoitlarda, sigirlarning sut mahsuldorligi darajasi va sut tarkibi ularning qaysi zotga oidligiga bog'liq bo'ladi. Shuni qayd etish darkorki, O'zbekistonning naslchilik amaliyoti ham sigirlarning mahsuldorligi ularning nasliga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, sigirlarning irsiyati organizmning rivojlanishini belgilaydi. Aynan irsiy genetik belgilar sigirlarning mahsuldorligini, shuningdek, yog'lilik konservativizmini va sut oqsildorligini hamda naslning boshqa sifatlarini oldindan aniqlab beradi.

Hammaga ma'lumki, sog'im bo'yicha irsiy koeffitsiyentlar 10-30%ga, sutning yog'ligi - 50-80%ga, oqsil miqdori - 40-70%ga teng. Xuddi shunday tirik vaznning shakllanishi bo'yicha o'zgaruvchanlikni saqlash taxminan 30%dan 50%gachani tashkil etadi. Biroq amaliyotda sigirlarning farqli irsiyati kuzatiladi. Leshuk bo'yicha ushbu farqlanishning sabablari tashqi sharoitlarning ta'siri, tanlab olish intensivligi, saralash turi, podaning genealogik tuzilishi va boshqa sabablar hisoblanadi. Jahon amaliyotiga ko'ra eng ko'p sezilarli kamayish sut sog'imida kuzatiladi. Sut tarkibida yog' va oqsilning o'zgarishi ham kamayish tendensiyasiga ega. Sut mahsuldorligining asosiy o'zgaruvchanlik belgilari quZyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi: sog'im - 20+30%, sut tarkibidagi yog' - 410%, oqsil - 3-9%.

Mahsuldorlikni oshirishning muhim jihatlaridan biri sigirning fiziologik holati hisoblanadi. Sigirlarning fiziologik holatiga quyidagilar kiradi:

- sigirning yoshi (birinchi tug'ruqqa);
- laktatsiya davrining davomiyligi;
- bo'g'ozlik;
- servis-davri;
- sutdan chiqqan davr;
- sut unumdorligi tezligi;
- yelin shakli.

Ta'kidlash zarurki, sut mahsuldorligi darajasini aniqlash uchun birinchi tug'ruqdagi

20-Dekabr, 2025-yil

sigir yoshi muhim omil hisoblanadi. Sigirlarning juda ham erta yoshi va erta urug‘lanishida (ayniqsa rivojlanmagan tanalar), ularning o‘ssishi varivojlanishi to‘tab qoladi. Bu o‘z navbatida, keyinchalik sigirlarning maydalashib ketishiga, bizning tadqiqotimiz uchun eng muhim bo‘lgan sut mahsuldorligining pasayishiga olib keladi. Shuni ham aytish joizki, amaliyotda bunday sigirlarning keyinchalik sersut qilishning ko‘p hollarida sog‘im tenglashgani kuzatilgan, biroqbirinchi laktatsiyadagi sut yo‘qotishlari kompensatsiyalanmagan.

Shu bilan birga, eslatish lozimki, tanalarni juda kechiktirib urug‘lantirish ham katta yo‘qotishlarga olib keladi. Takror ishlab chiqarishda kechiktirib foydalanadigan tanalarni yetishtirishda, ularning butun yashash davrida katta miqdorda yem-xashak sarflanadi. Boz ustiga, ulardan kamroq buzoqlar va sut miqdori olinadi.

Shunday qilib, mollarni birinchi uruglantirishda sigirlarning mahsuldorligini oshirish omili sifatida yosh va tirik vaznni kiritish mumkin.

Sigirlarning mahsuldorligini oshirishning boshqa muhim jihati laktatsiyaning davomiyligi (uzoq cho‘zilishi) hisoblanadi. Sigirlar laktatsiya davrining me‘yorli davomiyligi - 305 kundur. Biroq amalda laktatsiya davrining qisqarishi yoki cho‘zilishi kuzatiladi. Sigirlarning tug‘ruqdan keyin kechiktirib urug‘lantirilishi natijasida laktatsiya davriningcho‘zilishi sodir bo‘ladi. Sigirlarning tug‘ruq payti yilning bir xil oylarida, ya‘ni har 12 oydan keyin eng qulay hisablanadi. Qisqartirilgan laktatsiya davrida, ya‘ni 305 kundan kam bo‘lganda, me‘yorli sutdan chiqqan davrda qator yillar davomida (bir kun yoki yil hisobida molning yashash davrida) sigirlar cho‘zilgan laktatsiya va teng sutdan chiqqan davrdagiga ko‘ra ko‘p sut beradi.

Sut yo‘nalishidagi sigirlar mahsuldorligini oshirishning muhim bosqichlari bo‘lib servis-davrining davomiyligi, sutdan chiqqan davr va tana yoki sigirlarning bo‘g‘ozligi oralig‘i ekanligini qayd etamiz.

Servis-davrning qulay muddatini 40-80 kun tashkil etadi. Chorvachilik bo‘yicha olimlar tomonidan servis-davrining uzoqligi sigirlarning mahsuldorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi aniqlangan. Misol uchun agar o‘rtacha 305 kunlik laktatsiya davrida sigirlarning o‘rtacha sutkalik sog‘imi 100% deb olinsa, 450 kungacha uzaytirilgan laktatsiyada o‘rtacha sutkalik sog‘im boshlang‘ich davrga nisbatan 85%ni tashkil etadi. Shunday qilib, uzaytirilgan laktatsiyada sut sog‘imi sigirlarning me‘yorli laktatsiyadagiga nisbatan 15%ga kamayadi.

Ta‘kidlash lozimki, sutdan chiqish davrining cho‘zilishi sigirlarning kelgusida sut mahsuldorligini oldindan aniqlaydi.

A.I.Afanasyevaning tadqiqotlariga binoan, sutdan chiqqan 40-60 kunlik davrda sigirlarning sog‘imi keyingi laktatsiyalarda 30 kundan kam

bo‘lgan sutdan chiqqan davrdagiga nisbatan 20%ga oshadi.

Shuningdek, yuqorida keltirilgan tadqiqotlar bo‘yicha 30-40 kunlik sutdan chiqqan davrda sigirlarda keyingi laktatsiyalar paytida sog‘im 45-60 kunlikka nisbatan 10%ga kamayadi. Shu bilan birga, sutdan chiqqan davrda pichanli va silos-pichanli ratsionlardan foydalanish laktatsiyalanadigan sigirlarning sut mahsuldorligini oshiradi va og‘iz suti

sifatini yaxshilanishini qayl qilish lozim.¹

Sut sog‘imi bo‘yicha sigirlar mahsuldorligiga ta’sir qiladigan, oddiy bo‘lmagan aniqlangan omillardan biri - yelin shakli hisoblanadi. Chorvachilik bo‘yicha tadqiqotlarda, vanna va kosa ko‘rinishli shakldagi yelenga ega sigirlar eng mahsuldor sigirlar ekanligi aniqlangan. Mazkur sigirlarda sog‘im, yelini yumaloq shaklda bo‘lgan sigirlar sog‘imiga nisbatan 15-20% ko‘p bo‘ladi. Yelini echkinikidek yoki primitiv shaklda bo‘lgan sigirlarning sog‘imi, mos ravishda 25-30% va 35-40%ga, yuqori mahsuldorli sigirlar turiga nisbatan kam bo‘ladi.

Qayd qilish lozimki, yelin shakli va sut berish tezligiham o‘zaro ijobiy bog‘langan. Vanna va kosa shaklidagi yelinli sigirlar, yumaloq, echkinikiga o‘xshash va oddiy shakldagi yelinli sigirlarga nisbatan ancha yuqori sut berish tezligiga ega. Ma’lumki, sigirlarning tirik vazni ham ularning mahsuldorligiga ta’sir etadi. Yaxshi va to‘laqonli boquvdagi xiyla yirik sigirlar uncha katta bo‘lmagan sigirlarga nisbatan ko‘p sut beradi. Bu, yirik sigirlarning ko‘p yem-xashakniyeb qo‘yishi va uni yaxshiroq sutga qayta ishlashi bilan tushuntiriladi.

Haqiqatda ham ko‘pchilik yuqori mahsuldorli sigirlar, o‘rtachaga nisbatan yuqori tirik vaznga ega. Biroq, tirik vaznning ko‘payishi hamma vaqt ham sut sog‘imining ko‘payishiga olib kelmaydi, agar ushbu yirik shoxli mollar sut turidagi sigirlar hisoblanmasa. Laktatsiya davrida sigirlar sog‘imi ularning tirik vaznidan 8-10-marta oshishi, yoki sutdorlik koeffitsiyenti (laktatsiyadagi sog‘imning tirik vaznga nisbati va uni 100 ko‘paytirilgani) 800-1000 kg teng bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bu uning sut turidagi sigir ekanligini ko‘rsatadi. Sigirlarning sut sog‘imi bo‘yicha yuqori mahsuldorligining eng muhim jihatlardan biri boqish, saqlash va foydalanish sharoitlari hisoblanadi.

Qayd etish joizki, yirik shoxli qoramollarning aksariyati dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarida konsentratsiyalashganligi tufayli go’sht ishlab chiqarishda ular ulkan salmoqqa ega bo‘lmoqda. Masalaning ikkinchi tomoni, istiqbolda dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarining go’sht ishlab chiqarishdagi salmog‘ini saqlab qolish birmuncha murakkablashadi. Buning sababi, qoramollarni boqish va saqlash joylarining cheklanganligi hamda omixta yem bazasining rivojlanmaganligidir.

Yirik shoxli qoramollarni istiqbolda rivojlantirish va go’sht ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun quyidagi ishlarni bajarish maqsadga muvofiq:

- yirik shoxli qoramollarga yem-xashak yetishtirish uchun yer maydonlari ajratish;
- omuxta yem bazasini yaxshilash;
- qoramollar genafondini
- yaxshilash, go’sht yetishtirishga yo‘naltirilgan mollarning salmog‘ini oshirish;
- qoramollar sonini oshirish hamda yoshiga yetgan va yetilgan (kerakli vaznni to‘plagan) mollarni go’shtga topshirish;
- un va yog‘ ishlab chiqarish korxonalari bilan go’sht ishlab chiqaruvchi korxonalar

¹Афанасьева А.И. Продуктивные и воспроизводительные показатели коров красной степной породы при различных типах кормления: научное издание / А. И. Афанасьева, А.И. Огуй, С. А. Галдак // Вестник Алтайского государственного аграрного университета. - 2007. - № 5 (31). - С. 33-34. - Библиогр. в конце ст. (2 назв.) . - ISSN 978-5-944.

o‘rtasida integratsiyalashuvga erishish;

- qoramolchilik sohasida ratsional oziqlantirish tizimini joriy etish orqali buzoqchalarning o‘sishi va kerakli yuk olishini optimallashtirish;

- paxta maydonlarini qisqartirish negizida shakllangan ortiqcha yer resurslarini yog‘ olish uchun soya, raps, zigir, kunjut, masxar ekinlari uchun ajratish va poyalarini qoramolchilikda yem-xashak sifatida foydalanish va hokazo.

Yuqorida belgilab berilgan vazifalarning istiqbolda milliy iqtisodiyotda hal etilishi mamlakat aholisini yuqori sifatli go‘sht va go‘sht mahsulotlari bilan ta‘minlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, kelgusida Qashqadaryo viloyatida chorvachilik mahsulotlarining asosiy turlarini yetishtirish (naturada va qiymatda) ishlab chiqarishni innovatsion asosda tashkil etish va boshqarishni talab etadi. Bu esa soha iqtisodiy samafradorligini oshirishga, material xarajatlarini kamaytirishga, intensiv rivojlanishni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

LITERATURE:

1. Абдуллаев А.Ч. Chorvachilik iqtisodiyoti va statistikasi. T.: Qishloq xo‘jaligi nashriyoti, 2020.
2. Икрамов Ж. O‘zbekiston chorvachilik sanoati: iqtisodiy tahlil. T.: Fan va texnologiya, 2021.
3. Davlat statistika qo‘mitasi. Qishloq xo‘jaligi statistik hisobotlari 2015–2024. T.: Toshkent, 2024.
4. Rahimov S. Qishloq xo‘jaligi va chorvachilikni boshqarish. T.: Ekonomika, 2019.
5. Афанасьева А.И. Продуктивные и воспроизводительные показатели коров красной степной породы при различных типах кормления: научное издание / А. И. Афанасьева, А.И. Огуй, С. А. Галдак // Вестник Алтайского государственного аграрного университета. - 2007. - № 5 (31). - С. 33-34.